

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ENANTIOSEMIYA MAVZUSINI O‘RGANISHDA BADIY ASARLAR BILAN ISHLASH

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek
tili ta’lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:** Antonimiya mavzusida o‘zbek tilshunosligida ko‘p o‘rganilgan bo‘lsa ham, lekin enantiosemiya mavzusi kam o‘rganilayotgan yo‘nalish desak ham. Bu mavzuni o‘rganish bevosita adabiyot ya’ni badiiy asar bilan integratsiya qilishni taqozo qiladi. Bu mavzuni o‘rganish asosida nafaqat tilshunoslik rivojiga hissa qo‘shadi balki o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga ham jalb qilgan bo‘lamiz.*

***Kalit so‘zlar:** antonimiya, enantiosemiya, integratsiya, muammo, metod, badiiy asar.*

Kundan kunga taraqqiy topayotgan davlatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara bermoqda. ¹Leksik antonimiya leksemaning bir- biriga zid ma’no anglatishi asosida guruhlanishidir: oq va qora, qalin va yupqa kabi. Turli xil so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zlar antonim bo‘la olmaydi. So‘zlar antonim bo‘lishi uchun bir xil so‘z turkumiga mansub bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda fanlarni bir- biri bilan integratsiya qilgan holda darsni tashkil qilish o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishini osonlashtirmoqda. Tilshunoslikda shunday mavzular borki, ular endi tilshunoslar tomonidan o‘rganilmoqda. Bu mavzu aynan “Antonimiya” tarkibidagi “Enantiosemiya” mavzusi hisoblanadi. Enantiosemiya aslida nutqimizdagi bir leksemaning boshqa ma’noda qo‘llanilishi hisoblanadi.

²Enantisemiya bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra zidlanishining ifodalanishidir. Masalan: *otash* so‘zining lug‘aviy ma’nosi “o‘t”, “olov” degani. Badiiy adabiyotda bu so‘z “his- tuyg‘u” ma’nosida ishlatiladi. Misol uchun: Hafiza Umid yuragidagi *otashga suv sepib*, o‘chirib ketmoqchi bo‘ldi. Mirmuhsin.

³D. N. Shmelyov “Enantisemiya” atamasi tor va keng ma’nolarda qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tor ma’noda bir xil leksemaning qarama-qarshi ma’nolarini bildiradi.

Biz enantiosemiya mavzusida yuqori natijalarga erishishimiz uchun adabiyot bilan hamkorlikda ish olib borishimiz kerak. Ayrim so‘zlar so‘zlashuvda o‘zining lug‘aviy ma’nosini anglatmagan bo‘lsa, ayrimlari asar muallifi tomonidan qo‘llaniladi. Masalan: *ofat* so‘zining lug‘aviy ma’nosi “falokat”, “balo”, ammo Oybekning “Ulug‘ yo‘l” romanidagi “Adibaxon alifday nozik yuzi tiniq, oq yirik

¹ H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - “Talqin” - 2005

² H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - “Talqin” - 2005

³ H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - “Talqin” - 2005

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ko‘zlari ustidagi qoshlari *ofat* “ jumlasidagi *ofat* “falokat”, “balo” ma’nosini emas “go‘zal”, “maftunkor” ma’nosini ifodalamoqda. Shuningdek ma’raka lug‘aviy ma’nosi “to‘y” ma’nosini ham, “motam” ma’nosini ham ifodalaydi. Shevalarda ko‘p hollarda “motam *marosimi*” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: Gulsumbibi... qizining butun ma’rakasini o‘tkazgandan keyin, qabrga haydasalar ham dadil borishga tayyorligini so‘zladi. Oybek. Bu gapda motam marosimi ma’nosini anglatyapti. Shu-shu bo‘ldi-yu, Norbuvining martabasi oshib, har bir ma’raka uning maslahatisiz bo‘lmaydigan bo‘lib qoldi. H.Shams. Bu gapda ma’raka so‘zi “to‘y”, “tomosha” ma’nosini anglatyapti. *Qiyomat* so‘zining lug‘aviy ma’nosi insonlarning qayta tirilish kuni, qo‘zg‘alon, g‘avg‘o, to‘palon degani. Lekin, shevalarda *qiyomat* so‘zi “zo‘r”, “chiroyli” degan ma’noda qo‘llaniladi. Masalan: *Men bugun bozorda qiyamat narsa ko‘rdim. Televizorda qiyamat kino bervatir.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - “Talqin” - 2005
2. Шмелев “Современный русский язык” Москва “Просвещение” 1977
3. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” (Metodik qo‘llanma) Toshkent-2013
4. B. To‘xliyev, M. Shamsiyev, T. Ziyodova “ O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent - 2010